



PLASTIK ALMASHINUV. OQSILLAR BIOSINTEZI. GENETIK KOD



- Biologik sintez

reaksiyalarining to‘plami ***plastik almashinuv*** (yoki assimilatsiya) deb ataladi. Modda almashinuvida bu turning nomi uning mohiyati bilan bog‘liq: hujayra tashqaridan kelayotgan oddiy moddalar hisobiga o‘zi uchun zarur bo‘lgan birikmalarni hosil qiladi. Quyida plastik almashinuvning eng muhim shakllaridan biri bo‘lgan oqsil biosintezini ko‘ramiz.






- Chunki tirik organizmlarda boradigan har xil biokimyoviy jarayonlar orasida oqsil birikmalarining sintezi alohida o‘rin egallaydi. Moddalar almashinuvi aslida oqsillar almashinuvi bilan bog‘liq bo‘lib, oqsillarga xos bo‘lgan biror xususiyatning o‘zgarishi ayni paytda moddalar almashinuvi jarayonining o‘zgarishiga ham sabab bo‘ladi.




- Oqsillarning biologik vazifasi asosan aminokislotalarning oqsil molekulasidagi o'rni ya'ni, ularning ketma-ketligi bilan aniqlanadi. Binobarin, bunday molekulalar biosintezi oldindan belgilangan reja bo'yicha amalgashishi kerak. Bunday reja DNK molekulasida 4 xil nukleotidlarning yordamida yozilgan bo'lib, u oqsil molekulasingning nusxasi yoki qolipi deb yuritiladi.




- 20 xil aminokislotaning DNK molekulasi dagi 4 xil nukleotidlar yordamida ifodalanishi ***genetik kod*** deb ataladi. Har bir aminokislotaniga 3 ta nukleotidning birikishidan hosil bo‘lgan triplet kod yordamida ifodalanadi. 20 ta amino kislotani ifodalash uchun 61 ta tripletli koddan foydalaniladi. Demak, bitta aminokislotaniga undan ortiq kod yordamida ifodalanadi.




- Kodlarning umumiyligi soni 64 ($4^3 = 4 \cdot 4 \cdot 4$) taga teng. Qolgan 3 ta kod oqsil sintezining boshlanishi va tugallanishini bildiradi. Genetik kod barcha tirik organizmlar uchun universal hisoblanadi. Demak, u mikroorganizmlardan odamgacha bir xildir.






- Genetik kodning muhim xususiyatlaridan biri uning o‘ziga xosligi bo‘lib, bitta triplet bitta amino kislotaga mos keladi. oqsil biosintezi o‘ta murakkab jarayon bo‘lib, bunda xilma-xil ferment va RNKlar ishtirok etadi. Bu jarayon hujayraning maxsus sintez qiluvchi organoidi — ribosomalarda kechadi.


- Dastlab aminokislotalar ATP energiyasi yordamida faol holga keladi va t-RNKLar yordamida ribosomalarga tashib keltiriladi. oqsil to‘g‘risidagi axborot DNK molekulasidan i-RNKLar yordamida ko‘chirib olinadi va ribo-somaga beriladi. Demak, DNKnинг zanjirlaridan birida RNK molekulasi sintezlanadi. i-RNK nukleotidlarning ketma-ketligi DNK molekulasidagi nuk-leotidlар ketma-ketligiga mos (komplementar) bo‘ladi



- Oqsil sintezi transkripsiya va translyatsiya bosqichlarda amalga oshadi. DNKdagi oqsil to‘g‘risidagi axborotni i-RNKga ko‘chi rib o‘tilgandek yozili shiga ***transkripsiya*** deyiladi. Transkripsiya yadroda kechadi. I-RNKdagi nukleotidlар ketma-ketligini aminokislotalar ko‘rinishida namoyon bo‘lishiga ***translyatsiya*** deyiladi.



- Translyatsiya jarayoni ribosomada kechadi. Shunday qilib, sitoplazmada ribosoma va i-RNKdan iborat oqsil sintez qiluvchi majmua hosil bo'ladi. Ribosoma i-RNK bo'ylab harakat qiladi va polipeptid zanjirning hosil bo'lishi boshlanadi. Bu harakat davomida ribosomaga ketma-ket ravishda aminokislotalar kelib qo'shiladi.



- Aminokislota bilan tripletli kodining mos kelishini t-RNK belgilaydi. oqsil molekulasi sintezi tugallangach, polipeptid zanjir ribosomadan ajraladi. Ribosoma va i-RNK molekulasidan oqsillar biosintezida qayta-qayta foydalanish mumkin.

